



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No9(2)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 104 sahifa,  
11-sentyabr, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

|                                                                                                                                                                              |    |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi uzviylik va uzluksizlik masalalari:<br>muammoning nazariy va amaliy jihatlar.....                                                        | 10 |
| <i>A. A. Alimov, M. A. Rustamboyeva</i>                                                                                                                                      |    |
| Bolalarda didaktik o'yinlar asosida aqliy faolligini rivojlantirish .....                                                                                                    | 16 |
| <i>Ismoilova Sabina Erkin qizi</i>                                                                                                                                           |    |
| Ingliz tilida og'zaki nutq kompetensiyasining mazmuni, tuzilmasi va tarkibiy komponentlari .....                                                                             | 22 |
| <i>Nazarov Zafarjon Abdullajon o'g'li</i>                                                                                                                                    |    |
| Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirishning<br>pedagogik tizimini takomillashtirish .....                         | 26 |
| <i>Sabirova Gulmira Sadik qizi</i>                                                                                                                                           |    |
| Реализация компетентностного и нейродидактического подходов в<br>профессиональной подготовке специалистов профессионального образования .....                                | 32 |
| <i>Азизова Асалхон Руслановна</i>                                                                                                                                            |    |
| Развитие воображения учащихся с нарушением зрения в процессе изобразительной деятельности... 36                                                                              |    |
| <i>Бектурдиева Шохидат Сатиболдиевна</i>                                                                                                                                     |    |
| Musiqa ta'limida raqamli texnologiyalar asosida o'quvchilarning musiqiy-kognitiv<br>salohiyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish .....                         | 44 |
| <i>Rustamjonova Dilhas Ravshanbek qizi</i>                                                                                                                                   |    |
| Tarbiyaviy jarayonlarda texnologik yondashuvni tadbiq etishning pedagogik imkoniyatlari .....                                                                                | 50 |
| <i>Raxmatova Mexrinov Majitovna</i>                                                                                                                                          |    |
| Bo'lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta'lim sharoitida ko'rishida muammolari bo'lgan bolalar bilan<br>ishlashga tayyorlashning ilmiy-metodik asoslari.....                 | 54 |
| <i>Xusnuddinova Zulayxo Xamidullayevna</i>                                                                                                                                   |    |
| Biologiya fanini o'qitishda biologiya (maxsus pedagogika: logopediya) yo'nalishi talabalarining<br>tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ..... | 61 |
| <i>Hakimova Musharraf Fozilovna, Hasanova Zebo Davlatovna</i>                                                                                                                |    |
| Rus tilini o'qitish jarayonida talabalarining kasbiy-kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish metodlari... 66                                                            |    |
| <i>Alisherova Guldiyora Fazogir qizi</i>                                                                                                                                     |    |
| Taekvondo kyorugi sportchilari o'rta sinf o'g'il bolalarining surunkali og'riq tarqalishi .....                                                                              | 70 |
| <i>Boymirzozoda Islomjon Ergash o'g'li</i>                                                                                                                                   |    |
| Orolbo'yi mintaqasida ekologik xavfsizligini ta'minlashning siyosiy-huquqiy asoslari.....                                                                                    | 77 |
| <i>Kurbanbayeva Ulbosin Jumag'aliyevna</i>                                                                                                                                   |    |
| Communicative Tasks to Develop English Speaking Skills in Grades 3-4 .....                                                                                                   | 81 |
| <i>Malika Mutalliyeva</i>                                                                                                                                                    |    |
| SHAF-modeli asosidagi psixologik-pedagogik korreksion dasturning talabalarda<br>chet tilini o'rganish samaradorligiga ta'siri .....                                          | 85 |
| <i>Ruzmetova Zilolakhon Dilmuradovna</i>                                                                                                                                     |    |
| Boshlang'ich ta'lim mazmunini aksiologik paradigma asosida tizimlashtirishning pedagogik samaradorligi... 89                                                                 |    |
| <i>Shabbazova Dilfuza Ro'zikulovna</i>                                                                                                                                       |    |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarida yumshoq (soft skills) ko'nikmalarni shakllantirishning<br>pedagogik va metodologik asoslari .....                                           | 95 |
| <i>Yakubjonov Xasan Qahramonovich</i>                                                                                                                                        |    |
| Yuqori sinf o'quvchilarining ingliz tilida o'qish kompetensiyasini rivojlantirishning lingvometodik asoslari ....                                                            | 99 |
| <i>Zarifa Ko'paysinova</i>                                                                                                                                                   |    |

# RUS TILINI O'QITISH JARAYONIDA TALABALARNING KASBIY-KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODLARI

**Alisherova Guldiyora Fazogir qizi**

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti o'qituvchisi

E-mail: alisherovaguldiyora2@gmail.com

**ORCID: 0009-0006-7912-8841**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada rus tilini o'qitish jarayonida talabalarning kasbiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi ko'rib chiqiladi. Rus tilini o'rganishda talabalarning o'z fikrini to'g'ri va erkin ifodalashi, kasbiga oid so'zlardan foydalanishi hamda turli vaziyatlarda rus tilida muloqot qila olishi muhim hisoblanadi. Maqolada talabalarning nutqini rivojlantirish uchun suhbat, savol-javob, rolli o'yin, guruh bo'lib ishlash, amaliy topshiriqlar va zamonaviy ta'lim usullaridan foydalanish yo'llari yoritilgan. Bunday usullar talabalarning darsdagi faolligini oshirish va rus tilida muloqot qilish ko'nikmalarini yaxshilashga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** rus tili, rus tilini o'qitish, kasbiy muloqot, kommunikativ ko'nikma, nutq, rolli o'yin, amaliy topshiriqlar, zamonaviy ta'lim usullari.

**Abstract:** This article discusses the development of students' professional communication skills in the process of teaching the Russian language. When learning Russian, it is important for students to express their thoughts correctly and freely, use words related to their profession, and communicate in Russian in different situations. The article describes ways of using conversations, questions and answers, role-playing, group work, practical tasks, and modern teaching methods to develop students' speaking skills. These methods help increase students' activity in lessons and improve their communication skills in Russian.

**Key words:** Russian language, teaching Russian, professional communication, communication skills, speech, role-playing, practical tasks, modern teaching methods.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается вопрос развития навыков профессионального общения студентов в процессе обучения русскому языку. При изучении русского языка важно, чтобы студенты могли правильно и свободно выражать свои мысли, использовать слова, связанные с их профессией, а также общаться на русском языке в различных ситуациях. В статье рассматриваются способы использования беседы, вопросов и ответов, ролевых игр, групповой работы, практических заданий и современных методов обучения для развития речи студентов. Такие методы помогают повысить активность студентов на занятиях и улучшить их навыки общения на русском языке.

**Ключевые слова:** русский язык, обучение русскому языку, профессиональное общение, коммуникативные навыки, речь, ролевая игра, практические задания, современные методы обучения.

## KIRISH

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida talabalarning zamonaviy bilim va ko'nikmalarini shakllantirish, ularni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy mutaxassisdan faqat o'z kasbini yaxshi bilish emas, balki turli insonlar bilan to'g'ri va samarali muloqot qila olish ham talab etiladi. Shu sababli oliy ta'lim jarayonida xorijiy va rus tillarini o'qitishga alohida e'tibor berilmoqda. Tilni o'rganish jarayonida talabalarning muloqot qilish, o'z fikrini aniq ifodalash va olgan bilimlarini amaliy faoliyatda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish zarur.

Rus tili O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida turli yo'nalishlarda tahsil olayotgan talabalar uchun muhim fanlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, rus tilini ona tili sifatida emas, balki ikkinchi til yoki chet tili sifatida o'rganayotgan talabalar uchun amaliy muloqot ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Talaba rus tilidagi grammatik qoidalarni bilishi yoki ko'plab so'zlarni yod olishi mumkin, biroq bu bilimlardan real muloqot jarayonida foydalana olmasa, uning tilni egallash darajasi yetarli bo'lmaydi. Shuning uchun rus tilini o'qitishda nazariy bilim bilan bir qatorda amaliy nutq faoliyatiga ham katta e'tibor berish lozim.



Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida talabaning faolligini oshirishga qaratilgan turli zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish imkoniyatlari kengayib bormoqda. An'anaviy darslarda o'qituvchi asosiy ma'lumot beruvchi, talaba esa tinglovchi sifatida ishtirok etgan bo'lsa, zamonaviy ta'limda talabaning faol ishtirokiga katta ahamiyat beriladi. Bunda talabalar savol beradi, javob beradi, suhbatlashadi, guruhda ishlaydi, turli vaziyatlarni muhokama qiladi va mustaqil fikr bildiradi. Bunday faoliyat rus tilida muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Rus tilini o'qitish jarayonida kasbiy yo'nalishga ham e'tibor qaratish muhimdir. Chunki talaba kelajakda egallaydigan kasbiga oid so'z va iboralarni bilishi, kasbiy mavzularda suhbatlasha olishi va o'z fikrini rus tilida ifodalashi kerak. Masalan, qishloq xo'jaligi, iqtisodiyot, pedagogika, tibbiyot, texnika yoki boshqa sohalarda ta'lim olayotgan talabalar uchun umumiy rus tili bilan bir qatorda o'z kasbiga tegishli so'zlarni o'rganish ham zarur. Bu esa rus tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshiradi va til bilimlarining amaliy ahamiyatini ko'rsatadi. Kasbiy-kommunikativ kompetensiya talabaning kasbiy faoliyat bilan bog'liq vaziyatlarda muloqot qila olish qobiliyatini anglatadi. Bunday kompetensiya bir nechta muhim ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Jumladan, suhbatdoshni tushunish, savol berish, savollarga javob berish, o'z fikrini aniq bayon qilish, kasbiy so'zlardan to'g'ri foydalanish, suhbatni davom ettirish va zarur holatlarda yozma muloqot olib borish shular jumlasidandir. Mazkur ko'nikmalarni shakllantirish rus tili darslarining asosiy vazifalaridan biri bo'lishi mumkin.

Talabalarning kasbiy-kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda kommunikativ metod muhim o'rin egallaydi. Ushbu metod orqali til o'rganishning asosiy maqsadi muloqot qilishga yo'naltiriladi. Dars davomida talabalar real hayotga yaqin bo'lgan vaziyatlarda rus tilidan foydalanadilar. Masalan, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi suhbat, ish joyidagi muloqot, telefon orqali gaplashish, mutaxassis bilan suhbat, kasbiy mavzudagi munozara yoki ma'lum bir muammoni birgalikda hal qilish kabi topshiriqlar talabalarning nutqiy faolligini oshiradi.

Rolli o'yinlardan foydalanish ham rus tilini o'qitishda samarali usullardan biridir. O'yin davomida har bir talaba ma'lum bir vazifani bajaradi va o'z roliga mos ravishda rus tilida gapiradi. Masalan, "ish beruvchi va ishga kiruvchi", "o'qituvchi va talaba", "mutaxassis va mijoz", "shifokor va bemor" kabi vaziyatlarni tashkil etish mumkin. Bunday mashg'ulotlar talabalarni real hayotdagi muloqotga tayyorlaydi va ularning o'z fikrini erkin ifodalashiga yordam beradi. Guruh bo'lib ishlash ham talabalarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish uchun samarali hisoblanadi. Guruhli topshiriqlar davomida talabalar bir-biri bilan fikr almashadilar, savollar beradilar, o'z fikrlarini himoya qiladilar va umumiy xulosaga keladilar. Natijada ular nafaqat rus tilidagi so'z boyligini oshiradilar, balki boshqalarni tinglash va o'z fikrini tushunarli tarzda yetkazish ko'nikmalarini ham rivojlantiradilar.

Shuningdek, savol-javob, muammoli topshiriqlar, kichik loyihalar, suhbatlar va kasbiy mavzudagi matnlar bilan ishlash talabalarning rus tilidagi nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday topshiriqlarni talabalarning mutaxassisligiga moslashtirish yanada samarali natija beradi. Chunki talaba o'z kelajakdagi kasbi bilan bog'liq mavzuda gapirishga ehtiyoj sezadi va o'rganayotgan til materialidan amaliy foydalanadi.

Rus tilini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ham ta'lim samaradorligini oshirish imkonini beradi. Elektron taqdimotlar, videolar, audio materiallar, onlayn mashqlar va turli raqamli vositalar orqali talabalar rus tilini turli shakllarda o'rganishlari mumkin. Ayniqsa, audio va video materiallardan foydalanish talabalar uchun tabiiy ruscha nutqni eshitish, tushunish va unga javob berish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, o'qitish jarayonida talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olish ham muhimdir. Barcha talabalar tilni bir xil tezlikda o'zlashtirmaydi. Ayrim talabalar og'zaki muloqotda faol bo'lsa, boshqalari yozma topshiriqlarni yaxshi bajarishi mumkin. Shu sababli o'qituvchi turli xil metod va topshiriqlardan foydalanib, har bir talabaning darsda faol ishtirok etishi uchun sharoit yaratishi kerak.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, rus tilini o'qitishda asosiy e'tiborni faqat til qoidalarini o'rgatishga emas, balki talabalarning amaliy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratish zarur. Ayniqsa, kasbiy yo'nalishdagi topshiriqlardan foydalanish talabalarning rus tiliga bo'lgan qiziqishini oshirish, o'rgangan bilimlarini amaliyotda qo'llash va kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Rus tilini o'qitishda talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish masalasi ko'plab olimlarning tadqiqotlarida yoritilgan.

D. Hymes kommunikativ kompetensiyani til vositalaridan turli vaziyatlarda to'g'ri va maqsadga muvofiq foydalanish qobiliyati sifatida izohlaydi.

M. Canale va M. Swain esa kommunikativ kompetensiyaning grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatadilar.

E. I. Passov rus tilini o'qitishda kommunikativ yondashuvdan foydalanish, talabalarni faol muloqotga jalb etish va amaliy nutq ko'nikmalarini shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi.

O'zbek olimlari O'. Q. Tolipov, M. Usmonboyeva va N. N. Azizxo'jayeva ishlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va talabalarning faol ishtirokini ta'minlash masalalari yoritilgan.

Mazkur tadqiqotlar asosida aytish mumkinki, rus tilini o'qitishda suhbat, savol-javob, rolli o'yin, guruhli ish va kasbiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlardan foydalanish talabalarning kasbiy-kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ishning metodologik asosini kommunikativ va kompetensiyaviy yondashuvlar tashkil etadi. Asosiy e'tibor talabalarning kasbiy vaziyatlarda muloqotga kirishishi, fikrini aniq ifodalashi va tegishli lug'atdan foydalana olishiga qaratildi. Tadqiqotda tahlil, kuzatish, taqqoslash, suhbat va pedagogik tajriba usullaridan foydalanildi. Mashg'ulotlar davomida o'quvchilarning nutqiy faolligi, kasbiy atamalardan foydalanishi hamda turli vaziyatlarga mos javob bera olishi kuzatildi.

Amaliy mashg'ulotlarda savol-javob, guruhli ish, rolli o'yin, munozara va vaziyatli topshiriqlar qo'llanildi. Mazkur usullar orqali kommunikativ ko'nikmalarining shakllanishi va o'quv faoliyatidagi faollik darajasi aniqlandi. Olingan ma'lumotlar taqqoslanib, qo'llanilgan metodlarning samaradorligi baholandi. Natijalar kasbiy yo'naltirilgan mashg'ulotlar muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida rus tilini o'rganayotgan talabalarning kasbiy-kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan turli topshiriqlar qo'llanildi. Mashg'ulotlarda talabalarning og'zaki muloqotdagi faolligi, savollarga javob berishi, o'z fikrini ifodalashi, kasbiy so'z va iboralardan foydalanishi hamda suhbatni davom ettira olishi kuzatildi. Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, oddiy grammatik va leksik mashqlar bilan cheklanib qolish talabalarning erkin muloqot qilish ko'nikmasini to'liq shakllantirmaydi. Talabalar o'rgangan so'z va grammatik qoidalarini real kommunikativ vaziyatlarda qo'llash imkoniyatiga ega bo'lganda, ularning darsdagi faolligi oshdi. Ayniqsa, kasbiy mavzular asosida tashkil etilgan topshiriqlar talabalarda katta qiziqish uyg'otdi.

Savol-javob mashqlarida talabalar qisqa javoblardan boshlab, asta-sekin to'liq gaplar orqali o'z fikrlarini bayon qilishga o'tdilar. Bunday mashqlar savolni tushunish, kerakli so'zlarni tanlash va javobni rus tilida shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berdi. Rolli o'yinlar ham samarali natija berdi. "Ish beruvchi va ishga kiruvchi", "mutaxassis va mijoz", "o'qituvchi va talaba" kabi vaziyatlarda talabalar o'zlariga berilgan rol asosida suhbat olib bordilar. Bu jarayonda ular kasbiy so'zlardan foydalanish, savol berish, javob qaytarish va suhbatni davom ettirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Rolli o'yinlar ayrim talabalarning darsdagi passivligini kamaytirishga ham yordam berdi.

Guruhli ish va munozaralarda talabalar bir-birining fikrini tinglash, o'z fikrini asoslash va umumiy qarorga kelishga harakat qildilar. Bunday mashg'ulotlarda rus tilidan foydalanish faqat o'qituvchi bilan muloqot qilish bilan cheklanmay, talabalar o'rtasidagi tabiiy suhbat shakliga ham o'tdi. Bu esa kommunikativ ko'nikmalarining amaliy rivojlanishiga xizmat qildi. Kasbiy yo'nalishdagi matnlar bilan ishlash jarayonida talabalar o'z mutaxassisligiga oid yangi so'z va iboralarni o'zlashtirdilar. Keyinchalik ushbu leksik birliklardan suhbat, savol-javob va vaziyatli topshiriqlarda foydalanish talab qilindi. Natijada yangi so'zlarni faqat yodlash emas, balki ularni nutqda qo'llashga e'tibor qaratildi.

Tadqiqot davomida audio va video materiallardan foydalanish ham talabalarning tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirishga yordam berdi. Tabiiy ruscha nutqni tinglash, uning mazmunini tushunish va savollarga javob berish orqali talabalar real muloqotga yaqin vaziyatlarda til bilan ishlash imkoniyatiga ega bo'ldilar. O'tkazilgan mashg'ulotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, kommunikativ metod, rolli o'yin, guruhli ish, munozara va vaziyatli topshiriqlarni birgalikda qo'llash talabalarning rus tilidagi nutqiy faolligini oshirishga yordam beradi.

Ayniqsa, topshiriqlarning talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyati bilan bog'lanishi ularning mavzuga qiziqishini kuchaytiradi. Shuningdek, barcha talabalar bir xil darajada faol bo'lmasligi kuzatildi. Shu sababli mashg'ulotlarda topshiriqlarni murakkablik darajasiga ko'ra tanlash va talabalarning individual imkoniyatlarini hisobga olish muhimdir. Faol talabalar uchun erkin suhbat va munozara topshiriqlari, qiynalayotgan talabalar uchun esa tayanch so'zlar, namunaviy savollar va qisqa dialoglardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari rus tilini o'qitishda kasbiy yo'naltirilgan kommunikativ topshiriqlardan foydalanish talabalarning amaliy muloqot ko'nikmalarini shakllantirish uchun samarali ekanligini ko'rsatdi. Bunday yondashuv talabalarga o'rgangan til materiallarini real va kasbiy vaziyatlarda qo'llash imkonini beradi.



## XULOSA

Olib borilgan tahlil va kuzatishlar rus tilini o'qitishda talabalarning kasbiy-kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishga alohida e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatdi. Bugungi kunda oliy ta'lim jarayonida tilni bilish bilan bir qatorda, olingan bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llay olish ham muhim hisoblanadi. Shu sababli mashg'ulotlarda nazariy ma'lumotlarni amaliy vazifalar bilan bog'lash maqsadga muvofiqdir.

Kommunikativ yondashuv asosida tashkil etilgan darslarda talabalarning mustaqil fikrlashi, savollarga javob berishi, suhbatda faol qatnashishi va o'z fikrini izchil bayon qilishi uchun qulay sharoit yaratiladi. Ayniqsa, rolli o'yinlar va vaziyatli topshiriqlar kundalik hamda kasbiy muloqotga yaqin sharoitni yaratib, nutqiy tajribani boyitadi. Guruhli ish va munozaralar o'zaro fikr almashish, tinglash va suhbatdoshning fikriga munosabat bildirish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Savol-javob usuli esa yangi so'z va iboralarni faol nutqqa kiritishga yordam beradi. Kasbiy mavzularga asoslangan topshiriqlar orqali mutaxassislikka oid terminlardan to'g'ri foydalanish, hujjatlar bilan ishlash va muayyan kasbiy vaziyatni rus tilida ifodalash imkoniyati kengayadi.

Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish mashg'ulotlarning mazmunini boyitadi va o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Interfaol usullarni an'anaviy mashqlar bilan uyg'unlashtirish orqali grammatik bilimlarni ham amaliy nutq bilan bog'lash mumkin.

Umuman, rus tilini o'qitishda kasbiy yo'naltirilgan va kommunikativ metodlardan tizimli foydalanish talabalarning nutqiy imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv kelajakdagi mutaxassislarning o'z fikrini aniq ifodalashi, kasbiy terminlardan foydalanishi va turli muloqot vaziyatlariga moslasha olishiga yordam beradi. Shu bois ta'lim jarayonida real kasbiy vaziyatlarga asoslangan mashqlarni ko'paytirish, interfaol metodlardan foydalanish va mustaqil nutqiy faoliyatga keng imkoniyat yaratish tavsiya etiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azizxo'jayeva N. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. – 160 b.
2. Canale M., Swain M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing // Applied Linguistics. – 1980. – Vol. 1, No. 1. – P. 1–47.
3. Hymes D. On Communicative Competence // Sociolinguistics. – Harmondsworth: Penguin, 1972. – P. 269–293.
4. Tolipov O'. Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – 261 b.
5. Пассов Е. И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. – М.: Просвещение, 1991. – 223 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №9(2)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.